



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 249-256 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O‘ZBEKISTONDA BOJXONA TO‘LOVLARI TUSHUMINING SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI



Sarmanov Orifjon Adiljonovich,

Bojxona instituti katta o‘qituvchisi, i.f.f.d. (PhD),

e-mail: sarmanovorifjon@gmail.com,

Razaqov Zafarjon Toir o‘g‘li,

Bojxona instituti magistratura tinglovchisi,

O‘tkirov Behzod Muhammadi o‘g‘li

Bojxona instituti magistratura tinglovchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda bojxona to‘lovlari tushumining samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning ta’sir darajasini baholash va mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida statistik ma’lumotlar tahlili, solishtirma usullar va ekonometrik tahlillardan foydalaniladi. Olingan natijalar bojxona tizimini takomillashtirish va davlat byudjeti daromadlarini oshirishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishiga xizmat qilishi kutiladi.

Kalit so‘zlar: Bojxona to‘lovlari, import hajmi, tarif, korrelyatsiya, regression tahlil, O‘zbekiston iqtisodiyoti, tashqi savdo.

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОСТУПЛЕНИЙ ТАМОЖЕННЫХ ПЛАТЕЖЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Сарманов Орифжон Адилжонович,

Старший преподаватель Таможенного института, д.ф.э.н. (PhD),

e-mail: sarmanovorifjon@gmail.com,

Разаков Зафаржон Тоир угли,

Магистрант Таможенного института,

Уткиров Бехзод Мухаммади угли

Магистрант Таможенного института,

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные факторы, влияющие на эффективность поступлений таможенных платежей в Узбекистане, оценка степени их воздействия и разработка предложений по устранению существующих проблем. В процессе исследования применяются статистический анализ данных, сравнительные методы и эконометрический анализ. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования таможенной системы и увеличения доходов государственного бюджета, что, в свою очередь, должно способствовать устойчивому экономическому росту страны.

Ключевые слова: Таможенные платежи, объем импорта, тариф, корреляционный анализ, регрессионный анализ, экономика Узбекистана, внешняя торговля.

ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF CUSTOMS PAYMENT REVENUES IN UZBEKISTAN

Sarmanov Orifjon Adiljonovich,

Senior teacher of Customs Institute of Customs Committee, PhD,
e-mail: sarmanovorifjon@gmail.com,

Razakov Zafarjon Toir o'g'li,

Master's student at the Customs Institute,
Utkirov Bekhzod Muhammadi o'g'li
Master's student at the Customs Institute.

Abstract: This article aims to identify the main factors influencing the efficiency of customs payment revenues in Uzbekistan, assess the extent of their impact, and develop recommendations to address existing challenges. The study employs statistical data analysis, comparative methods, and econometric analysis. The obtained results are expected to be practically significant for improving the customs system and increasing state budget revenues, thereby contributing to the country's sustainable economic growth.

Keywords: Customs payments, import volume, tariff, correlation analysis, regression analysis, Uzbekistan economy, foreign trade.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanish strategiyasida tashqi savdo va bojxona siyosati muhim o'rin tutadi. Bojxona to'lovlari davlat byudjetining muhim daromad manbalaridan biri sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda, shuningdek, ichki bozor va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishda asosiy vositalardan biridir. So'nggi yillarda global iqtisodiy o'zgarishlar, savdo aloqalarining kengayishi va mintaqaviy integratsiya jarayonlari O'zbekiston bojxona tizimining samaradorligiga yangi talablar qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentyabrdagi "«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmonning "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" ustuvor yo'nalishining "Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish" nomli 46-maqсадida – "Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo'lgan miqdorda bo'lishini ta'minlash" vazifasi belgilab berildi [1].

Ushbu sharoitda bojxona to'lovlari tushumining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish nafaqat iqtisodiy siyosatni optimallashtirish, balki bojxona xizmatlarini modernizatsiya qilish va xalqaro savdo jarayonlariga moslashtirish nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Bojxona to'lovlari tushumining samaradorligi bir qator ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, ularga bojxona qonunchiligining sifati, infratuzilmaning rivojlanish darajasi, texnologik imkoniyatlar, xodimlar malakasi, shuningdek, tashqi savdo hajmi va global iqtisodiy konyunktura kiradi. O'zbekistonning tashqi savdoda asosiy sheriklari bilan aloqalari, iqtisodiy islohotlar jarayoni va raqamlashtirish siyosati ham ushbu jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bojxona tizimida mavjud bo'lgan muammolar, masalan, byurokratik to'siqlar, korrupsiya xavfi va ma'lumotlar shaffofligining yetarli darajada bo'lmasligi tushum samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida ko'zga tashlanadi. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar tahlili va ekonometrik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Ushbu maqolani tayyorlashda Gujarati, D. N., Porter, D. C larning (2009) "Basic Econometrics" [2] va J.M.Woldridjning "Introductory Econometrics (2018)"[3] nomli o'quv qo'llanmalari, Maria-Carmen Guisanning (2008) "An econometric model of industry, foreign trade, and economic development in Philippines, 1990-2006" [4], Yeon Soo CHOllarning "Assessing Customs Efficiency in Developing Economies" [5], M. Teresa Cancelo (2002). "Econometric Models of Foreign Trade in OECD Countries" [6] maqolalaridan, shuningdek, T.N.Pardayev va O.A.Sarmanovlar tomonidan bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlili va ularning qisqa muddatli prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlaridan [10-11] foydalanildi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimiki, mamlakatimiz olimlaridan B.Yu.Xodiyev, T.Sh.Shodiyev, B.B.Berkinovlar iqtisodiy rivojlanishni ekonometrik modellashtirish [7-8], Yu.Muxamedov barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning omillari va ekonometrik modellari [9] ustida tadqiqot ishlarini olib borgan.

Metodologiya

Ushbu maqolada bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish uchun ekonometrik tahlil usullari qo'llaniladi: korrelyatsion tahlil va ko'p o'zgaruvchili chiziqli regression tahlil. Korrelyatsion tahlil o'zgaruvchilar o'rtasidagi chiziqli bog'liqlik darajasini aniqlash uchun ishlatiladi, bu esa qaysi omillarning bojxona to'lovlariga ko'proq ta'sir qilishini aniqlash qilish imkonini beradi. Regression tahlil esa ushbu bog'liqlikni miqdoriy jihatdan baholash va har bir omilning alohida ta'sirini koeffitsiyentlar orqali aniqlash uchun qo'llaniladi.

Tahlil va natijalar

Ma'lumotlar to'plami 9 yillik (2016-2024) kuzatuvlardan iborat bo'lib, bu chegaralangan hajmga qaramay, yuqori R^2 (0.990) ko'rsatkichi modelning ishonchliligini tasdiqlaydi. Tahlil jarayonida standart xatolik (St.Err.), t-value, p-value va 95% ishonch oralig'i kabi statistik ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Metodologiya Python yoki Stata kabi dasturlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan umumiy statistik yondashuvlarga asoslanadi. Quyidagi jadvalda ma'lumotlar to'plami, ularning izohlari va manbalari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.

Tahlilda foydalaniladigan ma'lumotlarning sharhlar jadvali

No	Ma'lumotlar	izoh:	Manba:
----	-------------	-------	--------

	to'plami:		
1.	Bojxona to'lovlari hajmi (paym)	Yillar kesimida Bojxona organlari tomonidan undirilgan va davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari hajmi(O'zbekiston). <i>Trillion usz</i>	Bojxona qo'mitasining ma'lumotlari.
2.	Import hajmi(imports)	Mamlakatga import bo'lgan jami tovarlar hajmi. <i>Milliard usd</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlari. URL: https://www.stat.uz/en/official-statistics/merchandise-trade
3.	O'rtacha tarif (tariff_rate)	O'rtacha tarif* $= \frac{\sum_{i=1}^n (t_i \times X_i)}{\sum_{i=1}^n X_i}$	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi hamda Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari. URL: https://customs.uz/en
4.	Dollar kursi (currency_rate)	AQSH dollarining so'mga nisbatan rasmiy ayriboshlash kursi. <i>usz</i>	O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining rasmiy sayti ma'lumotlari. URL: www.cbu.uz
5.	Rasmiylashtiruv vaqti (clearance_time)	Import bojxona yuk deklaratsiyalari rasmiylashtiruvi uchun sarflanayotgan o'rtacha vaqt. <i>Kun</i>	Jahon Bankining ma'lumotlari URL: https://data.worldbank.org/

*Ushbu formulada: t_i – i -tovar yoki tovar guruhining tarif stavkasi, X_i – i – tovarning importdagi qiymati yoki hajmi, n – tovar guruhlarining soni.

Tahlil jarayonida nomustaqil o'zgaruvchi(Y) sifatida bojxona to'lovlari hajmi, mustaqil o'zgaruvchilar(X) sifatida esa import hajmi, o'rtacha tariflar, AQSH dollarining so'mga nisbatan kursi hamda import rasmiylashtiruvi uchun sarflanayotgan o'rtacha vaqt olindi.

2-jadval

Deskriptiv statistik jadvali

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Customs payments	9	29.702	21.795	5.63	63.105
Import	9	22922.609	9128.593	11328.407	36781.744
Tarif_rate	9	11.743	2.997	7.771	15.54
Clearance_time	9	3.811	1.045	3.01	6.3

Currency_rate	9	9653.744	2916.142	3198	12901
---------------	---	----------	----------	------	-------

Yuqoridagi deskriptiv statistik jadval ma'lumotlari asosida quyidagilarni tahlil qilish mumkin (2-jadval):

- Importning 9 yil davomida 25 milliard dollarga oshishi (11.328 dan 36.781 gacha, taxminan 3 barobar) bojxona to'lovlarning ham o'sishiga (5.63 dan 63.105 gacha) bevosita ta'sir qilgan.

- Import oshgan bo'lsa-da, tarif stavkasi o'rtacha 11.743% atrofida barqaror (7.771–15.54). Bu import hajmi oshishining to'lovlarga ta'siri boj tarifidan ko'ra kuchliroq ekanligini ko'rsatadi.

- Bojxona to'lovlari (5.63–63.105) va import (11,328–36,781) katta farqqa ega, bu iqtisodiy dinamikani aks ettiradi.

- Valyuta kursining o'sishi (3,198 dan 12,901 so'm/USD) importning so'm qiymatini oshirib, trillion so'm miqyosidagi to'lovlarni keltirib chiqargan.

Ko'p omilli chiziqli regressiya tahlilning matematik mazmuni

Tahlil ko'p o'zgaruvchili chiziqli regression modeliga asoslanadi, bu yerda bojxona to'lovlari (Y) quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 * Imports + \beta_2 * Tariff_rate + \beta_3 * Clearance_time + \beta_4 * Currency_rate + \varepsilon$$

Bu yerda:

- β_0 – doimiy qiymat (intercept),
- $\beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$ – har bir mustaqil o'zgaruvchining koeffitsiyentlari,
- ε – xatolik (residuals).

Korrelyatsion tahlil natijalari

Korrelyatsiya matritsasi bojxona to'lovlari va boshqa o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi (3-jadval):

3-jadval

Variables	Korrelyatsion matritsa jadvali				
	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
(1) Bojxona to'lovlari	1.000				
(2) Import	0.973	1.000			
(3) Boj tarifi	0.502	0.373	1.000		
(4) Time_clearance	-0.745	-0.785	0.058	1.000	
(5) Valyuta kursi	0.839	0.860	0.042	-0.979	1.000

- **Bojxona to'lovlari va import hajmi(0.973):** Juda yuqori ijobiy korrelyatsiya import hajmining bojxona to'lovlariga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligini tasdiqlaydi. Bu holat mantiqan to'g'ri, chunki import hajmi oshgani sari to'lovlar ham ortadi.

- **Bojxona to'lovlari va Valyuta kursi (0.839):** Yuqori ijobiy bog'liqlik valyuta kursining oshishi import to'lovlarning ham oshishini ko'rsatadi.

- **Bojxona to'lovlari va Boj tarifi (0.502):** O'rtacha ijobiy korrelyatsiya tarif stavkasining muhim, lekin boshqa omillarga qaraganda kamroq ta'sir qilishini bildiradi.

• **Bojxona to'lovlari va o'rtacha rasmiylashtiruv vaqti (-0.745):** Kuchli salbiy bog'liqlik rasmiylashtirish vaqtining uzayishi to'lovlarni kamaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Va aksincha. Rasmiylashtiruvning uzoq davom etishi import hajmining bevosita kamayishiga, bu esa o'z navbatida bojxona to'lovlarning ham kamayishiga olib kelishi mumkin.

• **Import hajmi va valyuta kursi (0.860):** Import hajmi valyuta kursiga ham bog'liq, bu global iqtisodiy dinamikani aks ettiradi.

• **O'rtacha rasmiylashtiruv vaqti va valyuta kursi (-0.979):** Juda yuqori salbiy korrelyatsiya. Ammo bu ikki o'zgaruvchi orasida iqtisodiy jihatdan hech qanday bog'liqlik mavjud emas

Regression tahlil natijalari

Regression tahlili bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy jihatdan baholaydi. Quyida natijalar keltirilgan:

4-jadval

Regressiya koeffitsiyentlari va statistik ko'rsatkichlar jadvali

Bojxona to'lovlari	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Imports	.001	0	-.97	.017	0	.02	*
Tariff_rate	1.648	.498	.31	.03	.265	3.032	*
Clearance_time	11.187	6.343	.76	.153	-6.425	28.798	
Currency_rate	.007	.003	.43	.072	-	.014	
Constant	-125.959	45.462	-2.77	.05	-252.183	64	
Mean dependent var		29.702		SD dependent var		21.795	
R-squared		0.990		Number of obs		9	
F-test		97.505		Prob > F		0.000	
Akaike crit. (AIC)		48.640		Bayesian crit. (BIC)		49.626	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Regressiya koeffitsiyentlari va statistik ko'rsatkichlar jadvalidan (4-jadval) ko'rinib turibdiki Modelning umumiy ishonchliligi yuqori: $R^2 = 0.990$, ya'ni bojxona to'lovlardagi o'zgarishlarning 99% mustaqil o'zgaruvchilar bilan tushuntiriladi. **F-test (97.505, $p < 0.000$)** modelning statistik ahamiyatini tasdiqlaydi, ya'ni o'zgaruvchilar birgalikda bojxona to'lovlarni tushuntirishda muhim. **Imports (Coef. = 0.001, $p = 0.017$):** Import hajmining har

bir birlik o'sishi bo'xona to'lovlarini 0.001 ga oshiradi, bu 95% ishonch darajasida statistik jihatdan muhim ($p < 0.05$). **Tariff_rate (Coef. = 1.648, p = 0.03)**: Boj tarifi 1% ga oshganda to'lovlar 1.648 trnl ga ortadi, bu ham $p < 0.05$ darajasida ahamiyatli. **Currency_rate (Coef. = 0.007, p = 0.072)**: Valyuta kursining har bir birlik o'sishi to'lovlarni 0.007 ga oshiradi, lekin ushbu o'zgaruvchi $p = 0.072$ ($p < 0.1$) darajasida kuchli ahamiyatga ega emas. **Clearance_time (Coef. = 11.187, p = 0.153)**: Rasmiylashtirish vaqtining bo'xona to'lovlariga ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz (p -ko'rsatkich 0.153 *chiqqanligi sababli*). **Constant (Coef. = -125.959, p = 0.05)**: Doimiy qiymat salbiy bo'lib, barcha o'zgaruvchilar 0 bo'lganda to'lovlarning asosiy darajasini ko'rsatadi. Import hajmi va boj tarifining kichik standart xatoliklari (0 va 0.498) ularning bo'xona to'lovlariga aniq ta'sir etishini ko'rsatadi. Modelning AIC (48.640) va BIC (49.626) qiymatlari uning soddaligi va mosligini aks ettiradi. Clearance_timening ahamiyatsizligi uning to'lovlarga ta'sirini cheklovchi omil ekanligini ko'rsatishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot O'zbekistonda 2016-2024 yillarda bo'xona to'lovlari tushumiga import hajmi va bo'xona tarifining asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekanligini aniqladi. Matematik model ($R^2=0.990$) yuqori aniqlikni ko'rsatdi.

Tizim samaradorligini oshirish uchun xalqaro savdo hajmini kengaytirish, tarif siyosatini moslashtirish va valyuta barqarorligini ta'minlash bo'yicha choralar tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "«O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158 Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
2. Gujarati, D. N., Porter, D. C., Basic Econometrics. McGraw-Hill Education. Darslik, 2009.
3. Jeffrey M. Wooldridge, Introductory Econometrics 7th edition, Darslik, 2018. URL: [https://www.academia.edu/49732662/Introductory Econometrics 7E 2020](https://www.academia.edu/49732662/Introductory_Econometrics_7E_2020)
4. Maria-Carmen Guisan, "An econometric model of industry, foreign trade, and economic development in Philippines, 1990-2006". Journal of International Trade Studies, 2008.
5. Yeon Soo CHOI, "Assessing Customs Efficiency in Developing Economies", WCO Research Paper No. 42, 2017.
6. M. Teresa Cancelo., "Econometric Models of Foreign Trade in OECD Countries", 2002. URL: [https://www.researchgate.net/publication/4810822 Econometric Models of Foreign Trade in OECD Countries](https://www.researchgate.net/publication/4810822_Econometric_Models_of_Foreign_Trade_in_OECD_Countries)
7. Xodiyev B.Yu., Shodiyev T.Sh., Berkinov B.B. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2017. – 144 b.
8. Berkinov B.B. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2015. – 184 bet.
9. Muxamedov Yu. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning omillari va ekonometrik modellari (O'zbekiston Respublikasi misolida). /Diss. iqt.fan. dok. TDIU. – T., 2006-y.
10. T.N.Pardayev. Bo'xona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili. O'zbekiston Bo'xona axborotnomasi. 2024-yil.

11. O.A.Sarmanov. Customs payments received to the state budget and econometric analysis of factors affecting it. Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 -0892 Vol14 Issue-01, June — 2024, (p. 163-168).

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

